

LUQMON BO'RIXONNING "QO'NOQ" HIKOYASIDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, filologiya
fakultetining 1-bosqich talabasi
Mavlonova Diyora Dilshodjon qizi.
dilnoraamonova4@gmail.com*

Annotasiya: Ushbu maqola o'tkir qalam sohibi Luqmon Bo'rixonning "Qo'noq" hikoyasida qo'llangan frazeologik birliklar va ularning frazeologik iboralar lug'atidagi ma'nolari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, frazeologik ma'no, uslubiy baho.

Hammamizga ma'lumki, adabiyot va tilshunoslik sohalari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Tilshunoslik sohasidagi har bir birlik, albatta, xalq tilida, badiiy va ilmiy tilda ham o'z ifodasini topadi. Xususan, iboralar, ko'chma ma'nolar: metonimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik kabilarni, shevaga xos so'zlarni qo'llash orqali badiiy asar tili ham jonli ham ta'sirli qila olish mumkin. Quyida biz taniqli yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Qo'noq" hikoyasidagi shunday til birliklaridan biri bo'lmish frazeologizmlar haqida so'z yuritamiz.

Frazeologiya (gr. phrasis ifoda, logos ta'limot)-leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular





ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, frazeologizm frazema, ibora, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birlik, frazeologik birikma kabi atamalar bilan ham yuritiladi. Ibora borasida Shavkat Rahmatullayevning shunday fikri bor : “ Frazemada ikki va undan ortiq leksema, o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda, bir umumiy ma'no.markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladiga ma'noni gavdalandirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, shu bilan birga, ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

Leksemada bo'lganidek, frazemaning mazmun planidan ham ikki hodisa ajratiladi: 1) lug'avey ma'no, frazeologik ma'no; 2) uslubiy baho.

Frazeologik ma'no. Frazemaning voqelikka nisbat beriluvchi lug'aviy mazmuni(nimanidir nomlashi, ifodalashi) *frazeologik ma'no* deyiladi. Masalan, *tuyaning kallasiday* frazemasida narsaning sifat belgisini (“hajmi odatdagidan ancha katta, yirik”), *yurak-bag'ri qon bo'lib ketdi* frazemasida esa kishining holatini (“diltang bo'lmoq”) anglatadi.

Uslubiy baho ifodalashning leksemadagi va frazemadagi mavqei farqli. Bunday baho leksemalarning ko'pida yaqqol ifodalanib turmaydi, ba'zan esa bunday baho leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'lladh bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko'pida esan uslubiy baho uning mazmun planida doimiy tarkibiy qism b'lib qatnashadi, ba'zan frazema ma'nosini butunlay qamrab olgandek, ko'mib yuborgandek bo'lib ko'rinadi.



Endi, “Qo‘noq” hikoyasidagi iboralarga kelsak, ushbu asarda turg‘un birikmalardan keng foydalanilgan. Va quyida ularning mazmuni bilan ko‘eib chiqamiz.

1. Yuragi orqaga tortib ketmoq- qo‘rqmoq
2. Bosh irg‘amoq- tasdiqlamoq
3. Ko‘nglimga hijillik cho‘kmoq- xavotirlanmoq
4. Qo‘l qovushtirmoq- biror chora-tadbir ko‘rishga intilmaslik, loqayd munosabatda bo‘lmoq
5. Ko‘zga tashlanmoq- ko‘rinmoq
6. Ko‘z tashlamoq- qaramoq
7. O‘zini tutmoq- o‘z holatini saqlamoq
8. Ma’yuslik bostirmoq- xafa bo‘lmoq
9. Yo‘lim tushmoq- bormoq
10. Ko‘z yugurtirmoq- nomiga qaramoq
11. Ko‘z uzmoq- qaramaslik
12. Qo‘l siltamoq- beparvolikda qoldirmoq
13. Ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq- xavotir bo‘lmoq, bezovta bo‘lmoq
14. Gap boshlamoq- biror mavzuda birinchi gapirmoq
15. Bosh(ini) aylan(tir)moq- esankiramoq
16. Hayron qotmoq- hayron bo‘lmoq
17. Tilga kirmoq- gapirmoq
18. Hiqildoqqa kelmoq- bezoq bo‘lmoq
19. Ko‘zdan kechirmoq- tekshirmoq
20. Bosh qotmoq- qattiq o‘ylamoq
21. Ko‘ngliga g‘ulu soldi- xavotir uyg‘otmoq
22. Ko‘zdan yo‘qolmoq- biror tomonga harakatlanib ko‘rinmay ketmoq
23. Sarosimada qolmoq- siqilmoq
24. Jig‘(i)ga tegmoq- asabiylashtirmoq
25. Chippakka chiqmoq- bekor bo‘lmoq
26. Izidan ergashmoq- orqasidan bormoq

- 
27. Alimsoqdan qolmoq- eski, qadimgi
28. Dami ichiga tushmoq- qo'rquv aralash hech narsa deya olmay qolmoq
29. O'z yog'iga o'zi qovurilmoq- ruhan ezilmoq, azoblanmoq
30. Zavqi jo'shmoq- xursand bo'lmoq
31. O'ziga kelmoq- o'z holatiga kelmoq
32. Qoqqan qoziqday bo'lmoq- bir joyda turib qolmoq
33. Qayirib tashlamoq – qattiq gap yoki harakat bilan jim qilmoq
34. Miq etmoq- biror harakat qilmoq yoki gapirmoq
35. Tahlikaga tushmoq- xavotirga tushmoq
36. Besh ketmoq- hayratda qolmoq

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo'rixon asarlari frazeologik birliklarga boy. Va uning birgina "Qo'noq" hikoyasida ham biz qirqqa yaqin iboralarni ham uchratishimiz mumkin. Ushbu iboralar bizning tilshunosligimizning rivojlanishi uchun juda katta hissa qo'shadi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O'rozova, K. Rixsiyev. O'zbek tili frazeologik lug'ati- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti- 2022.
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyev, M. Qurbonova, Z. Suyunova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili- Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti- 2009.
3. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent : "O'zbekiston" nashriyoti – 1992.
4. Luqmon Bo'rixon. "Qo'noq" hikoya. Toshkent- 2013.

